

## **Andijon davlat tibbiyot instituti Tillar, pedagogika va psixologiya kafedrası**



**Tillar, pedagogika va psixologiya kafedrası**

**Kafedra mudiri, falsafa fanlar nomzodi, dotsent**

**Laziza Sanjarovna Xudayberdiyeva**

**Ish vaqti: 8.00 – 17.00 +998 97 997 94 47**

E-mail: *adtitillar @umail.uz*

### **Tillar, pedagogika va psixologiya kafedrası tarixi va faoliyati**

Kafedra 1955-yil sentyabr oyida tashkil qilinib, dastlab Tillar kafedrası deb nomlangan. Kafedra mudirligiga birinchi bo'lib katta o'qituvchi Adolf Moiseevich Shnayzer tayinlangan.

Dastlab to'rt kishidan tashkil topgan jamoa 1957-yilga kelib malakali mutaxassislar bilan kengaytirildi. Ularning ichida V.A.Zamyatin, S.D.Misko, T.G.Antipova, D.M.Melinevskiylarning nomlarini keltirishimiz mumkin.

1958-yilda kafedra mudiri etib f.f.n. dotsent M.G.Nordkin tayinlangan. Ularning rahbarligi ostida M.G.Nordkina, D.K.Sudoma, N.I.Yolkin, L.A.Yolkina, S.S.Mejibovskaya, S.I.Yakubova, R.N.Zaveleva, G.I.Sverdlova, R.X.Niyazova kabi mutaxassislar faoliyat ko'rsatib keldilar. Shu davr mobaynida kafedra xodimlari o'zlarining ilmiy va ijtimoiy sohadagi ishlari bilan alohida e'tiborga sazovor bo'ldilar. M.G.Nordkin muallifligi ostida farmatsevtika institutlari uchun, M.G.Nordkina muallifligi ostida esa tibbiyot institutlari talabalari uchun "Lotin tili" darsliklari respublikada birinchi bo'lib chop etildi.

Keyinroq lotin tili seksiyasiga rahbarlik qilgan S.I.Yakubova ko'plab yosh mutaxassislarga ustozlik qildi, pedagogika fani bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini

yoqladi va shu bilan birga, o'z muallifligi ostida uch tillik "Ruscha-Lotinch-O'zbekcha meditsina lug'ati" ni chop ettirdi.

1965-yildan buyon kafedra o'qituvchilarining safi S.S.Manabayeva, L.V.Kim, G.Yu.Asanova, L.U.Xodjayeva, E.V.Komarova, L.E.Geninovich, X.A.Zoxidova, Z.Z.Raxmatullayeva, I.O.Klichyeva, M.M.Qo'ziboyeva, M.R.Axunova, L.S.Xudayberdiyeva. D.T.Arziyeva, B.R.Saidxanova, Z.R.Xolmirzayeva, G.K.Qobiljonova, M.R.Mamajonova, Z.M.Rahmatova, X.M.Ikromova, I.A.Matveyeva, D.N.Igamova, M.G.Xayitbayeva, N.A.Mamatova, Yu.O.Ergasheva, N.D.Axmedova, hisobiga kengaydi. Yosh mutaxassislardan F.I.Fatixova, F.A.Yusupova, F.H.Qosimova, M.U.Abduraxmanovalar o'z faoliyatlariga noan'anaviy usullarni kiritish bilan bir vaqtda yoshi katta hamkasblaridan pedagogik tajriba olib, "Ustoz-shogird" maktabini tashkil qildilar, kasbiy maxoratini mukammallashtirishmoqda.

Kafedra o'qituvchilari tomonidan respublika miqyosida lotin, ingliz va nemis tillari bo'yicha darsliklar va bir qancha ilmiy-uslubiy qo'llanmalar chop ettirildi. Kafedrada L.S.Xudayberdiyeva tomonidan nomzodlik dissertatsiyasi yoqlandi. Shu kunlarda ham kafedrada o'quv-uslubiy ishlarga alohida e'tibor berilmoqda. ADTI davolash, pediatriya, fakultetlari, kasb ta'limi, OXI yo'nalishi 1-3-bosqich talabalari, magistrilar, malaka oshirish tinglovchilari ham ushbu kafedrada taxsil olmoqda. Kafedra 1955 yil sentyabr oyida tashkil qilinib, dastlab "Tillar" kafedrasini deb nomlangan. Kafedra mudirligiga katta o'qituvchi A.M.Shnayzer tayinlangan. 1958 yildan boshlab dotsent M.G.Nordkin rahbarlik qilgan. Shundan keyin kafedra mudiri lavozimida quyidagi professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatganlar: Ten Aleksey Andreyevich, Atabekov Ravshan Dadamirzaevich, Ismailova Matlyuba Sattarovna, Ablayev Edem Adjievich, Dadaxo'jayev Ergash Solmonovich, Djumanova Dilbar Raximovna, Qobiljonova Gulbahor Komiljonovna, Xodjayeva Lola Ubaydullayevna. Hozirgi kunda kafedraga Xudayberdiyeva Laziza Sanjarovna rahbarlik qilib kelmoqda.

## **Kafedrada o'qitilayotgan fanlar**

### **BAKALAVRIAT**

O'zbek tili – davolash, pediatriya, kasb ta'limi, farmatsiya, tibbiy profilaktika, OXI 1-2 bosqich rus guruhi talabalari

Rus tili – davolash, pediatriya, kasb ta'limi, farmatsiya, tibbiy profilaktika, OXI 1-2 bosqich milliy guruhi talabalari

Lotin tili – davolash, pediatriya, kasb ta'limi, farmatsiya, tibbiy profilaktika, OXI 1- bosqich guruhi talabalari

Xorijiy tillar – davolash, pediatriya, kasb ta'limi, farmatsiya, tibbiy profilaktika, OXI 1-2-3 bosqich guruhi talabalari

Kasbiy psixologiya – kasb ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabalari

Kasbiy ta'lim metodikasi – kasb ta'limi yo'nalishi 6-7 bosqich talabalari, OXI 3-bosqich talabalari

Pedagogik psixologiya – davolash, pediatriya, kasb ta'limi, OXI 2 -bosqich guruhi talabalari

Pedagogik amaliyot – OXI 3-kurs; kasb ta'limi yo'nalishi 3-4-6-bosqich talabalari

Kasbiy pedagogika - kasb ta'limi yo'nalishi 2-3-4 bosqich talabalari, OXI 3-bosqich talabalari

### MAGISTRATURA

Xorijiy tillar – 1-2-bosqich talabalari

Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya –1-bosqich talabalari

Pedagogning nutq madaniyati – 2-bosqich talabalari

### **Kafedra professor-o'qituvchilarining ro'yhati**

<b>№</b>	<b>F.I.Sh.</b>	<b>Ilmiy darajasi va lavozimi</b>
<b>1</b>	<b>Xudayberdiyeva Laziza Sanjarovna</b>	Kafedra mudiri, dotsent
<b>2</b>	<b>Oxunova Muyassar Rasulovna</b>	Katta o'qituvchi
<b>3</b>	<b>Qo'ziboyeva Maxfuza Mirzayevna</b>	Katta o'qituvchi
<b>4</b>	<b>Arziyeva Dilfuza Tashlanovna</b>	Katta o'qituvchi
<b>5</b>	<b>Matveyeva Irina Aleksandrovna</b>	Katta o'qituvchi
<b>6</b>	<b>Mamajonova Moximir Rashidovna</b>	Katta o'qituvchi
<b>7</b>	<b>Mamatova Nilufar Abduxoshimovna</b>	Katta o'qituvchi
<b>8</b>	<b>Ikromova Xilola Muxiddinovna</b>	Katta o'qituvchi

<b>9</b>	<b>Igamova Dildora Nazirovna</b>	Katta o'qituvchi
<b>10</b>	<b>Rahmatova Zulxumor Mamedxanovna</b>	o'qituvchi
<b>11</b>	<b>Ergasheva Yulduz Otamirzayevna</b>	o'qituvchi
<b>12</b>	<b>Xayitboyeva Gulbaxor Ikromovna</b>	o'qituvchi
<b>13</b>	<b>Budikova Marg'uba Xoshimovna</b>	o'qituvchi
<b>14</b>	<b>Axmedova Nigora Dadaxanovna</b>	o'qituvchi
<b>15</b>	<b>Fatixova Firuza Invarovna</b>	o'qituvchi
<b>16</b>	<b>Minavarova Gavxaroy Muqimjanovna</b>	o'qituvchi
<b>17</b>	<b>Abduraxmanova Madina Ulugbekovna</b>	o'qituvchi
<b>18</b>	<b>Yusupova Feruza Alisherovna</b>	o'qituvchi
<b>19</b>	<b>Qosimova Ferusa Hursanaliyevna</b>	o'qituvchi
<b>20</b>	<b>Bo'ronova Nilufar Shavkatovna</b>	o'qituvchi

### **Kafedraning ilmiy yo'nalishlari:**

Talabalarning xorijiy tillar bo'yicha og'zaki va yozma savodxonligini oshirish, milliy guruh talabalariga rus tilini chuqurlashtirib o'rgatish va tibbiyot sohasida tarjimonlikni shakllantirish muammolari. Asosiy tarkibdan kelib chiqib, quyidagi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda:

1. Tarjima muammolari
2. Til o'rgatish metodikasi
3. Umumiy tilshunoslik

Kafedra o'qituvchilari tomonidan bir qator o'quv – uslubiy qo'llanmalar chop etildi. Shuningdek, turli mavzularda respublika, viloyat, institut miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda bir nechta maqola va tezislari bilan ishtirok etdilar.

## Kafedraning asosiy ilmiy yutuqlari

Kafedrada 1 nafar fan doktori va 8 nafar fan nomzodlari tayyorlangan.

Tarjima muammolari, til o'rgatish metodikasi, umumiy tilshunoslik bo'yicha 100 dan ortiq maqola va tezislar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar chop etilgan.

Kafedramizda har bir fan buyicha seksiyalar faoliyat ko'rsatadi. har bir seksiyada «ustoz-shogird» tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bunda malakali o'qituvchilar o'zlarining ko'p yillik tajribalarini yosh mutaxassislarga o'rgatish, darslarini nazorat qilish, bevosita dars jarayonlarini tahlil qilish va metodik-didaktik maslahatlar berish orqali oshirib kelmoqdalar. Yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, ixtisoslikka oid tezis va maqolalarini yozishni o'rgatish ham shular jumlasidandir.

Kafedra kutubxonalarida 100dan ortiq adabiyotlar, 50 dan ziyod elektron darsliklar, ma'ruza-prezentatsiyalar, o'quv filmlar mavjud. hamma amaliy mashg'ulotlar bo'yicha metodik qo'llanmalar mavjud. Fanlar bo'yicha O'quv-uslubiy majmua 4 ta tilda yaratilgan va yangilanib borilmoqda.

har yilgi o'quv yilida kafedramizda faoliyat ko'rsatayotgan ingliz, nemis, frantsuz, rus tillari seksiyasi bo'yicha talabalar respublika fan olimpiadalarida faol qatnashib, yaxshi natijalarga erishib kelmoqdalar. Iqtidorli talabalar bilan ishlash to'g'risida Nizom va reja asosida kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan sezilarli darajada faoliyat olib borildi. Jumladan, kafedra qoshida ingliz tili fanidan «AVICENNA» nomli klub, nemis tili fanidan "HEUTE" nomli klublar tashkil qilingan bo'lib, uning rahbarlari F.I.Fatixova, D.N.Igamovalar tasdiqlangan rejada bir qator ishlarni amalga oshirdilar.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqib, kafedrada o'qitiladigan fanlarning samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanilmoqda.

Ta'limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Shu sababli talabalarga mashg'ulotlar jarayonida mustaqil ishlash va fikrlash uchun imkoniyatlar va sharoitlar yaratib berilmoqda.

Kafedrada faoliyat olib borayotgan 20 nafar pedagoglar o'quv mashg'ulotlarini yuqori saviyada tashkil qilishga harakat qilib, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanmoqdalar.

Pedagoglarimiz o'z amaliy faoliyatlarida “Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz?” savollariga javob izlab har bir darsning mazmunini boyitishga intiladilar. Jumladan tillarni o'rgatuvchi fanlarda (ingliz tili, rus tili, o'zbek tili, nemis tili) talabaning so'z boyligini oshirish, insoniy munosabatlarda ularni qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish uchun “Bo'sh xalqa”, “Klaster”, “Sinkveyn”, “Baliq skeleti”, “qor parcha” texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil qilinmoqda. Bu noan'anaviy usullar asosida talabalar mustaqil holda mazmunli matnlar tuzib, dialogik xarakterdagi suhbatlar o'tkazish ko'nikmasini shakllantirmoqda.

“Lotin tili” darslarida ham “Tushunchalar tahlili”, “Labirint”, “Zinama-zina”, “Blits-so'rov” kabi interfaol usullardan unumli foydalanib, tibbiyotga oid atamalarni uzoq vaqt xotirada saqlanishi, bu bilimlardan kerakli jarayonlarda samarali qo'llashni talabalar anglab etmoqdalar.

Chet tillari darslarida “Aqliy hujm”, “qor uyumi”, “Zanjir”, “Sinkveyn”, “Klaster”, “Baliq skeleti” kabi interfaol usullardan foydalaniladi.

“Pedagogika va psixologiya” fanlarida esa “Bo'sh charxpalak”, “3x4 texnologiyasi”, “Muloqot”, “Debat”, “Munosabat”, “AJIL (amaliyotda jamoaviy ijodiy ishlar), KBI (kuzatish, baholosh, ishontirish), IMAK (ishontirish maktabi), FSMU, ” konsensus va konfrontatsiya (kelishuv va ziddiyat) rolli ishchan o'yinlardan foydalanilmoqda.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni joriy etilishida talabalarning yosh xususiyatlari, bilimga bo'lgan iqtidori va o'zlashtirishlari inobatga olinmoqda. Chunki talaba-yoshlar qo'yilayotgan muammolarga to'g'ri yondashib, munosabat bildirishlari, fikrlarini asoslay olish malakalarini tarbiyalash-zamonaviy darslarimizning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

**Kafedrada chop etilgan o`quv-uslubiy qo`llanma va ko`rsatmalar.**

<b>№</b>	<b>F.I.Sh.</b>	<b>Uslubiy qo`llanmani nomi va nashriyot nomi</b>	<b>Uslubiy ko`rsatmani nomi va nashriyot nomi</b>
1.	L.S.Xudayberdiyeva, N.A.Mamatova, I.A Matveyeva	«Situative Games at English Lessons for Medical Students»	ADTI
2	L.S.Xudayberdiyeva, I.A Matveyeva, D.T.Arziyeva	«Tibbiy profilaktika yo`nalishi talabalari uchun ingliz tilidan matn va mashqlar to`plami»	ADTI
2.	M.X.Budikova, D.N. Igamova	«1- bosqich OXI talabalari uchun nemis tilidan uslubiy qo`llanma»	ADTI
3.	D.N.Igamova, M.X.Budikova	«Praktisches Deutsch» fur Residenten des Masterstudiums des 2.Studienjahrs	ADTI
4.	L.S.Xudayberdiyeva, D.T. Arziyeva, I.A. Matveyeva	«1- bosqich talabalari uchun ingliz tilidan o`quv uslubiy ko`rsatma»	ADTI
5.	L.S.Xudayberdiyeva, D.T.Arziyeva, I.A.Matveyeva	«Texts and Exercises for the Second-year Residents of Master`s Degree»	ADTI
6.	L.S.Xudayberdiyeva, X.M.Ikromova, M.U.Abduraxmonova	Leksik minimum va mashqlar to`plami «1- bosqich talabalari uchun lotin tili fanidan uslubiy qo`llanma»	ADTI
7.	L.S.Xudayberdiyeva, X.M. Ikromova, M.U.Abduraxmonova	«1- bosqich talabalari uchun uslubiy qo`llanma»	ADTI
8.	M.M.Qo`ziboyeva, M.R.Axunova, Z. M .Raxmatova	«Tibbiyot talabalari uchun o`zbek tili fanidan uslubiy qo`llanma»	ADTI
9.	L.S.Xudayberdiyeva, Z.A.Majidova	Multiple Choise Tests	ADTI